



O'ZBEK FOLKLORI, BOLALAR MUSIQA SAN'ATI VA QO'SHIQ IJROCHILIGINING NAZARIY ASOSLARI

Muallif: Qobilova Dilovar Davron qizi¹

Affiliatsiya: mustaqil izlanuvchi¹

DOI: <https://doi.org/10.5281/zenodo.14469438>

ANNOTATSIYA

O'zbek xalq og'zaki ijodiy merosi, jahon xalqlari folklor san'atining ajralmas qismi hisoblanadi. Jumladan, o'zbek bolalar musiqa san'ati, xalq og'zaki ijodiy merosining tarkibiy qismi sifatida shakllanib, rivojlangan. Xalq og'zaki ijodida, elimizning uzoq yillik tarixi, orzu-istaklari va donishmandligi aks etadi. Kattalar folkloridagi qo'shiq, ertak va topishmoq kabilar, topishmoq, tez aytish va sanamachoq kabi ko'p janrlar, bolalarga moslashtirilgan holda yaratilgan bo'ladi.

Kalit so'zlar: Bolalar qo'shiqchiligi, bolalar musiqasi, musiqa san'ati, cholg'u ijrochiligi, doston, ertak, topishmoq, tez aytish, og'zaki ijod, bolalar folklori, mehnat qo'shiqlari, vatanparvarlik, axloq-odob, insoniylik.

Bolalik, sehrli olam, beg'ubor onlar, bokira tuyg'ular va ma'sum chog'lar, inson kelajagiga zamin yaratuvchi, poydevor qo'yuvchi davr. Bolalikni yuksak iste'dod egalari uchun ilhom manbaidir. Inson kamolot pallasida ham bolalikdan ruhlanib yashaydi. Har bir ota-onas farzandining go'daklikdan aqliy va jismoniy jihatdan barkamol bo'lib voyaga yetishishini istaydi. Go'daklik chog'idan alla, ertak va xalq qo'shiqlarini tinglab, asarlardagi mavjud obraz va timsollar ta'siridan bolada tasavvur, tafakkur va dunyoqarash shakllanadi. Badiiy asar ta'sirida, so'zga bo'lgan e'tibor ortib, bola nutqida poetik jihatdan takomilga yetkazishga qiziqish paydo bo'ladi.

Chunki, bolalar musiqa san'ati va qo'shiqchilagini rivojlantirishda musiqiy pedagogika alohida ahamiyat kasb etib, avvalo, bolaning ruhiy olami(psixologiyasi)ni tushunish, bola dunyosini chuqur tushunish lozim bo'ladi. Inson ruhiyatida o'z-o'zini anglash davri aynan bolalikda kashf etilishi ham turli xalqlarda turli davrlarda kechdi. Negaki, bolalik insondagi bebaho ichki olam sifatida, beg'uborligu ajoyibotlari bilan kattalarni o'ziga rom etuvchi davr ekani, kattalik davri esa, xuddi eng samimiy va bolalarcha beg'uborlik tark etilgan jarayon sifatida anglay boshlanishi uchun jamiyat ma'naviy ongida yangilanish joiz edi. Har bir mamlakatda bolalar tarbiyasiga oid, ularga bag'ishlangan yoxud maxsus yaratilgan ijod namunalarini haqdagi istilohlarni ham vujudga keltiradi.

Alisher Navoiyning badiiy ijod, she'riyatga qiziqishi g'oyat erta, go'daklikdan uyg'ongan, otasi G'iyyosidin, tog'asi Mirsaid- Kobuliy, Muhammad Ali- G'aribiy o'z davrining yetuk shoiri edilar. Alisher Navoiylar honadonida Xirotilik shoirlar tez-tez to'planishib, mushoira qilishar, adabiyot va san'at haqida suhbatlashar edilar. Ushbu

adabiy muhit sabab, unda bolaligidayoq adabiyotga zo'r havas uyg'otgan edi. Shu boisdan u, sharq adabiyotini bolalikdan qunt bilan o'rgandi.

"Alisher Navoiy 10-12 yoshidan she'r yoza boshlagan, tarixchi Xondamir-ning yozishicha, yosh Alisherning iste'dodidan mamnun bo'lgan mavlono Lutfiy, uning: Orazin yopqoch, ko'zumdan sochilur har lahma yosh,

Bo'yakim, paydo bo'lur yulduz, nihon bo'lg'ach quyosh. Matla'li g'azalini tinglab: "Agar tuyassar bo'lsa edi, o'zimning o'n-o'n ikki ming forsiy va turkiy baytimni shu g'azalga almashtirardim..." degan, Alisher Navoiy 15 yoshida shoir sifatida keng tanilgan". Bu kabi xodisa nafaqat Alisher Navoiyning hayotida o'chmas iz qoldirgan balki, tarixda bu kabi voqealar ko'plab ro'y bergen edi. Barcha davr, makon va zamonda yosh avlodning dunyoqarashi, tafakkuri, o'y kechinmalari, orzu-istaklari va vogelikka estetik munosabati o'z ifodasini topadi. Ularning aksariyati yozuvchilar (kattalar) tomonidan yaratilsa-da, vogelik bolalar dunyoqarashi nuqtai nazaridan talqin va tadqiq etiladi, bolalar tilidan hikoya qilinib, baholanadi. Rus adabiyotining asoschisi Aleksandr Sergeevich Pushkarda nafis so'z, she'riyatga yuksak mehr-muhabbatning paydo bulishida rus xalq qo'shiqlari hamda ertaklarini yuksak bilimdoni bo'lgan enagasi Arina Rodionovnaning ta'siri ayniqsa, kuchli bo'lgan edi. Rus xalq og'zaki ijodi namunalariga qiziqish natijasida Pushkinning "Pop va uning xizmatkori Balda haqida ertak", "Shoh Sulton haqida ertak", "Baliqchi va baliq haqida ertak" va "Oltin xo'rozcha haqida ertak" singari folklor motivlari bilan sug'orilgan asarlari maydonga keldi va bu asarlар Pushkin ijodidagi xalqchillikning yanada oshishiga sababchi bo'ldi.

Shu sabab, Pushkin ijodida polifonik tasvir usulining shunday yo'llarini topdiki, ular vogelikni keng qamrab olish, muhim hayotiy muammolarni tasvir doirasiga olib kirish, epik va lirik ibtidolarni uzviylashtirish imkonini berdi. Natijada asarda Pushkin yashagan davrning muhim masalalari o'z in'ikosini topdi, o'sha davrda keng tarqalgan kishilar xarakteri tarixiy, ijtimoiy va maishiy sharoit fonida zo'r mahorat bilan tasvir etildi.

Chindan ham bolalarni ustoz darajasida anglamoq-bu, avvalo, ularga yuksak ehtirom ko'rgazmoq, ularning ruhiyatiga hos qiziqish, intilishlari va hodisalarga nisbatan munosabatlarini, quvonch, tashvish hamda iztirob-larini sinchkovlik bilan o'rganmoq, ayni zamonda, shu jarayonni bolalarcha his etish, idrok qilish asosida ular uslubiga muvofiqlashtirish, badiiyat sintezidan o'tkazish bu ijodkorlikdir.

Binobarin, xuddi shu xususiyatlarni o'zida namoyon qila oladigan o'zbek bolalar musiqa san'ati va qo'shiqchiligi XX asrning 60-70-yillarda to'liq shakllanib, umumadabiyotning alohida tarmog'i sifatida maxsus yo'nalish kasb etdi.

Bolalar musiqa san'ati va qo'shiqchiligi har jihatdan badiiy ijod, bolalar adabiyoti bilan bog'liq bo'lib, adabiyot esa tarbiya quroli sifatida kichkintoylarga bilim berish, ya'ni ma'rifiy-tarbiyaviy vazifani ham bajaradi. Bolaning kiziqishlari doirasini kengaytiradi, garchi u "kattalar" – ijod ahli tomonidan yaratilsa-da, bolalar olamini aynan-o'zligicha, faqat bolalgagina xos nuqtai nazardan badiiy tadqiq qiladi. To'g'ri, inson ulg'aygani sari o'z bolaligidan yiroqlashadi, bolalik tabiatidagi xususiyatlarni yo'qota boradi. Biroq, bolalar shoiri bundan mustasno; u inson sifatida har qancha ulg'aymasin, baribir, bolalik tabiatini saqlab qolmog'i, uni tobora teranlashtirmog'i, bolalarcha sinchkov va qiziqsinuvchi bo'lib, ular ko'ngliga yo'l topmog'i, ruhiy dunyosiga kira bilmog'i shart.

Shu sababli, o'zbek folklorshunosligining asoschisi Hodi Zarifovdan nima uchun bolalar folklorini tadqiq etmasligi sababini so'rab, qiziqishganda "Bolalar folklorini tadqiq etish uchun bolalarni sevishni o'zi kamlik qiladi. Bolalarning turfa rang va beg'ubor olami, bolalarga xos soda, ammo nozik tuyg'uni sezmay turib, ijod qilmayman" –deya javob bergan ekan.

Bolalar musiqa san'ati va qo'shiqchiligi sohasida ijod qiluvchi pedagog avvalo, asar syujetning qiziqlarligi bolaga haqiqatan zavq bag'ishlaydi. Biroq, zamondosh kichkintoylar uchun buning o'zi yetarli emas. Shiddat bilan rivojlanayotgan zamon aravasida ketayotgan yosh avlod uchun o'tkir mazmun va g'oya ham zarur. Tasavvurga boy, teran ruhiy holat va falsafiylik, musiqa san'ati va qo'shiqchilikka qiziqqan yoshlar idrokini boyitishga xizmat qiladi.

Bolalarga musiqiy bilimlarni o'qitish, o'zlashtirish uchun mukammal o'ylangan va tizimli tarzda o'rgatilishi muhim ahamiyatga ega. O'zlash-tirilishi lozim bo'lgan bilim, musiqa savodi soddadan murakkabga qarab yo'naltirilgan bo'lishi, bilimlar aniq tizimga solingan bo'lmos'hish kerak. Yangi o'zlashtirilgan tushuncha va bilimlar asta-sekin kengaytirilib, chuqurlashtirib boriladi. Chunki, musiqiy bilimlarni o'zlashtirish bolalarda nafaqat ijodiy ko'nikma, malaka balki, o'zlariga ishonch paydo qiladi. Bolaning ruhini ko'tarib, musiqaga bo'lgan qiziqishlarini orttiradi. Musiqani idrok etish murg'ak qalb egasini hayotiy bo'lgani qiziqishini ortirib, tajribasini boyitadi, real voqealarni badiiy his etib, bilish, fikrlash qobiliyatini o'stiradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

O'zbekiston Respublikasi oliy va o'rata maxsus ta'lif vazirligining o'rta maxsus kasb-hunar ta'limi markazi faoliyatini takomillashtirish to'g'risida" 2018 yil 3-fevralidagi PQ 3504- sonli qaror. Lex.uz

O'zbekiston Respublikasining Prezidentining qarori 02.02.2022 yildagi PQ-112-son. (Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 03.02.2022y. 07/22/0099-son).

A.Lutfullayev. Chang va fortepiano uchun asarlar to'plami. O'zbekiston Davlat Konservatoriysi.

A.Lutfullayev. O'zbekiston musiqa san'ati ustalari Axmadjon Odilov ijodkorlik va ichrochilik bisotidan. O'zbekiston Davlat Konservatoriysi.

A.I.Petrosians. O'zbek xalq cholg'ulari. Toshkent, 2000 yil.

R.Qodirov. Musiqa pedagogikasi. Toshkent, 2014 yil